FOYDA SOLIQLARI (BHXS 12) STANDARTNI AMALIYOTDA QO'LLASH MASALALARI

Alimov Alisher Ulashevich
Termiz davlat universiteti magistranti
e-mail: alisherulashevich@gmail.com

Received: 25.08.2025
Revised: 26.08.2025
Accepted: 27.08.2025
Kalit so`zlar:
foyda solig'i, kechiktirilgan soliq aktivi, kechiktirilgan soliq majburiyati, buxgalteriya hisobi xalqaro standarti, soliq Kodeksi, chegiriladigan xarajatlar, chegirilmaydigan xarajatlar, kelgusiga o'tkazilgan zararlar.

Annotatsiya
Maqolada "Foyda soliqlari" nomli 12-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartini amaliyotda qo'llanilishi ochib berilgan bo'lib, hozirgi amaliy ma'lumotlar asosida tahlillar o'tkazilgan. Shuningdek, kechiktirilgan soliq aktivlari va kechiktirilgan soliq majburiyatlarini hisobga olish bo'yicha xorij tajribasining afzalliklari ochib berilgan. Tahlillar asosida xalqaro standartni amaliyotda qo'llashga qaratilgan ilmiy taklif va xulosalar qilingan.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz xorijiy mamlakatlar va xalqaro tuzilmalar bilan amaliy muloqotni rivojlantirish, o'zaro manfaatli hamkorlik va amaliy sheriklikni kengaytirishga bundan buyon ham katta ahamiyat qaratamiz"[1]. Yuqori qo'shilgan qiymatga ega hamda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, xorijiy davlatlarga mahsulotlarni eksport qilish evaziga iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantiramiz. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 2 iyunda PQ-181 sonli "O'zbekiston Respublikasining jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Respublikamizda iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish uchun korxonalar tomonidan yuqori qiymatli va import o'rnini bosuvchi tovarlarni

[1] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 41 b.

ishlab chiqarish, hamda eksportbob tovarlarni ko'paytirish bevosita xo'jalik yurituvchi subektlarning samarali boshqaruvni tashkil qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki har bir xo'jalik yurituvchi sub'ekt foyda olarkan, albatta o'z faoliyatini kengaytirishga, yanada ko'proq foyda olishga intiladi, bu esa bevosita mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga va import mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirishga olib kelishi bilan bir qatorda chet elga eksport qilish imkonini ham yaratadi.

2020 yil 24 fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-sonli qarorni imzoladi. Ushbu qarorga muvofiq, 2021 yildan boshlab sug'urta tashkilotlari, tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik soliq to'lovchilarga tegishli bo'lgan yuridik shaxslar MHXS (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritishlari shart etib belgilandi va 2021 yildan boshlab xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish lozimligi qayd etildi.

Xalqaro bozorlarga kiradigan kompaniyalar o'zlarining xorijiy hamkorlariga korxona faoliyati to'g'risida ishonchli va ochiq ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Xususan, xalqaro tajribadan foydalangan holda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tashkil qilishni zarurat qilib qo'yadi. Aynan shu muammo dissertatsiya tadqiqoti mavzusining dolzarbligini belgilab berdi.

Shuningdek, milliy qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini Jahon savdo tashkilotining qoida, meyor va bitimlariga moslashtirishmasalalari "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan ustivor yo'nalishlarda ham alohida belgilab berilgan ("O'zbekiston — 2030" strategiyasi, 2023).

O'z navbatida Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibidaqo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirishmuhim vazifalardan biri sifatida qaraladi. Bunda:

Eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish;

Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish;

Xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish;

Dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish;

“Yangi O’zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g’oyasi asosida milliy brendlarni xorijiy bozorlarga olib chiqadigan eksportchilarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarning barchasi milliy korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o’tish va foyda solig’ini xalqaro standart me’yorlarida qo’llash ko’p jihatdan bog’liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodchi olimlar tomonidan buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarini qo‘llash bo‘yicha dolzarb fikr va mulohazalar bildirilgan.

Professor Sh.Toshmatovning fikriga ko’ra, real sektor korxonalarida, ayniqsa yirik korxonalarda foyda solig’i bo’yicha hisoblangan joriy to’lovlar miqdoridan hisobot davri yakuni bilan aniqlangan haqiqiy foyda kam miqdorini tashkil etganda, korxona aylanma mablag’larini chetlanishi yoki joriy to’lovlar bo’yicha qarzdorlik yuzaga kelganda iqtisodiy jihatdan asoslanmagan penya hisoblanishiga olib keladi. Mazkur soliqni hisoblash bilanbog’liq chalkashliklarni oldini olish maqsadida foyda solig’i bo’yicha joriy to’lovlar hisoblash amaliyotini bekor qilish zarur[2].

Professor J.Urmonov fikriga ko’ra, umumbelgilangan tartibga o’tgan foyda solig’ini to’lovchi kichik korxonalarga tabaqalashtirilgan va pasaytirilgan soliq stavkalarini joriy qilish lozim[3].

Professor N.Ashurovaning xulosasiga ko’ra, soliq yukini optimallashtirish maqsadida foyda solig’i stavkasining pasaytirilishi budjet daromadlarining ortishiga, soliq yukining kamayishiga hamda YAIM ortishiga olib keladi[4].

Professor A.Islamkulov budjetlararo mutanosiblikni ta’minlashda soliqlar tizimini takomillashtirish mavzusidagi tadqiqot ishida mahalliy budjetlar

[2]Тошматов Ш.А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари:и.ф.д. илмий даражасини олишучун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008.

[3]Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари: и.ф.д (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2018

[4]Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш:и.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018.

moliyaviy mustaqilligini oshirishni soliqlar tizimi orqalirag'batlantirishda yuridik shaxslarning foydasolig'ini quyi budjetlarga biriktirib berishni taklif etgan[5].

Professor F.Isayev tomonidan foyda solig'i tahlili metodikasini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, Soliq kodeksining "Chegirilmaydigan xarajatlar"ga "aybdorlari aniqlanmagan kamomadlar" bandini kiritib tahrirlashni taklif qilgan[6].

X.Zaripovning qayd etishicha, tijorat banklari uchun ham foyda solig'i stavkasini 15 foiz miqdorida belgilash maqsadga muvofiq hisoblanadi[7].

Amerikalik taqiqotchi Knoll, M. fikriga ko'ra soliqlar ko'p yo'nalishlar bo'yicha raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi. Deyarli barcha soliqlar raqobatbardoshlikka ta'sir qiladi. Shuningdek, soliqlar raqobatga kamida 2 ta yo'nalish bo'yicha ta'sir qiladi. Birinchidan, ular ishlab chiqariladigan tovar va xizmatlarning tarkibi va umumiy miqdorining o'zgarishiga sabab bo'la oladi[8].

Ikkinchidan, ular turli xil tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarni o'zgartira oladi. Soliqlarning raqobatbardoshlikka ta'sirining yangi pul va investor modellarini taklif etadi.

Kanadalik olim O.Pinto ta'kidlashicha, soliq omillari xalqaro raqobatbardoshlikni baholashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning soliq tizimi uning raqobatdoshligining asosiy belgisi hisoblanadi[9].

Amerikalik iqtisodchi Artur Laffer byudjetga tushayotgan soliqlar miqdori va soliq stavkalari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqladi. Laffer egri chizig'ini ishlab chiqib, u stavkaning ma'lum darajaga ko'tarilishi soliq tushumlarining o'sishiga olib kelishini isbotladi, lekin juda yuqori stavkalar iqtisodiy o'sishning sekinlashishiga va soliq tushumlarining kamayishiga olib

[5] Исламкулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш: и.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020)


[6] Исаев И.Ф. Солиқ таҳлили методикасини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафадоктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2019.

[7] Зарипов Х.Б. Солиққа тортиладиган фойда маъмуриятчилиги механизми: хусусиятлари ва ҳозирги замон муаммолари. Монография Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2023. ISSN: 2181-1016.

[8] Knoll, M. (2006), Taxes and Competitiveness. Faculty Scholarship. p-30.

[9] Pinto, O. (2016). Tax Factors affecting International Competitiveness: Canada vs. United States Perspective. International Journal of Business and Social Science. Vol. 7, No. 12; December 2016

keladi10. Bu muvozanat foyda solig'i tushumlari bilan bog'liq davlat byudjeti daromadlarini rejalashtirishda ham namoyon bo'ladi.



Laffer egri chizig'i

Soliqlarni kamaytirish va investitsiyalarni rag'batlantirish tarafdorlari progressiv soliqqa tortish tizimidan voz kechib (ko'p daromad oluvchilar ishlab chiqarishni yuksaltirishda yetakchi hisoblanadi), tadbirkorlik, ish haqi va dividendlar bo'yicha soliq stavkalarini kamaytirish zarur deb hisoblaydilar. Investitsiya jarayonini, qo'shimcha ish va qo'shimcha daromadga ega bo'lish istagini rag'batlantirish kerak. Nazariyachilar o'z mulohazalarida Laffer egri chizig'iga tayanadilar. Stavkalar pasaytirilsa, soliq solinadigan baza ortadi. Yuqori soliqlar soliq solinadigan bazani va davlat byudjeti daromadlarini kamaytiradi.

Soliq to'lovchidan katta miqdordagi daromadning olib qo'yilishi tadbirkorlik tashabbusi va ishlab chiqarishni kengaytirish uchun rag'batlantiruvchi omillarni yo'qqa chiqaradigan chegara hisoblanadi. Soliq to'lovchilar soliq to'lashdan bo'yin tovlash usullarini qidiradilar va moliyaviy resurslarni iqtisodiyotning yashirin sektorida jamlashga intiladi. Lafferning kontseptsiyasiga asoslanib aytish mumkinki, ishlab chiqaruvchilardan qo'shilgan qiymatning 35-40% dan ortig'ini olib qo'yish kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni yo'qqa chiqaradi, bu "Soliq tuzog'i"ga tushib qolishni anglatadi.

[10] Васильева М.В. Оценка зарубежного опыта формирования системы налогообложения прибыли // Экономические и гуманитарные науки. 2012. № 7. с. 99-102.

Tahlil va natijalar

“Foyda soliqlari” nomli 12-sonli BHXS moliyaviy hisobot standartlaridan biridir. Uning asosiy vazifasi foydadan hisoblangan soliqlarni hisobga olish jarayonini nazorat qilishdan iborat. Ushbu standart bo’yicha hisobotlar joriy va kelajakdagi soliq operatsiyalari to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi, jumladan:

kompaniyalarning hisobotlarida mavjud bo’lgan joriy hisobot davrlarida turli xil operatsiyalar va boshqa harakatlarni;

kompaniyaning hisobotlarida mavjud bo’lgan barcha turdagi majburiyatlarning balans qiymatini keyingi faoliyatida to’lashni.

Ushbu standart xalqaro bozorga chiqish imkonini beradi, chunki xorijiy hamkorlar faqat xalqaro standartlarga muvofiq moliyaviy faoliyat to’g’risida hisobot taqdim etadigan kompaniyalar bilan hamkorlik qiladilar. Standartdan foydalanish kompaniyaning foydani yashirmasdan, shaffof buxgalteiya hisobini olib borishini ko’rsatadi.

1-jadval

Foyda solig’ini hisoblash formulasi[11]


Foyda solig’i	Belgilanishi
Jami daromad	D
Jami xarajatlar	X
Soliq solinishi lozim bo’lgan foyda (zarar)	D-X
Kelgusiga o’tkazilgan zararlar	K
Jami soliq solinishi lozim bo’lgan foyda (zarar)	F=D-X-K
Soliq miqdori	S=F*15%

Yuqoridagi jadvaldan tushinishimiz mumkunki, korxonalar tomonidan moliya yilida jami olingan daromadlardan jami xarajatlarni ayirmasi soliq solinishi lozim bo’lgan foydani beradi.

[11] Muallif ishlanmasi.

1-rasm

Kechiktirilgan soliq majburiyati va aktivlarining yuzaga kelishi sabablari[12]



Ko’rsatgich	Aktivlar	Majburiyatlar
Balans qiymat > Soliq qiymati	soliqqa tortiladigan ↓ Kechiktirilgan soliq majburiyati	chegirib tashlanadigan ↓ Kechiktirilgan soliq aktivi
Balans qiymat < Soliq qiymati	chegirib tashlanadigan ↓ Kechiktirilgan soliq aktivi	soliqqa tortiladigan ↓ Kechiktirilgan soliq majburiyati

[12] Muallif ishlanmasi.

Kechiktirilgan soliqlar - bu vaqtinchalik farqlar bo'yicha kelgusi hisobot davrlarida to'lanishi yoki qaytarilishi kerak bo'lgan soliq summalari.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari va aktivlari aktivlar va majburiyatlarning balans va soliq qiymatlari o'rtasidagi vaqtinchalik farqlardan kelib chiqadi.

Kechiktirilgan soliq majburiyatlari - soliqqa tortiladigan vaqtinchalik farqlar natijasida kelgusi davrlarda to'lanishi kerak bo'lgan daromad solig'i summalari.

Kechiktirilgan soliq aktivlari - bu quyidagi sabablarga ko'ra kelgusi davrlarda qoplanishi kerak bo'lgan daromad solig'i summalari:

a) chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farqlar;

b) foydalanilmagan soliq zararlarini kelgusi davrga o'tkazish;

c) foydalanilmagan soliq imtiyozlarini kelgusi davrga o'tkazish.

Soliq solinadigan foydani (zararni) shakllantirishda chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farqlar kechiktirilgan foyda solig'ining shakllanishiga olib keladi, bu esa keyingi hisobot davrida yoki keyingi hisobot davrlarida byudjetga to'lanishi kerak bo'lgan foyda solig'i summasini kamaytiradi.

Quyida kechiktirilgan soliq aktivlarini keltirib chiqaradigan vaqtinchalik farqlarga misollar keltiramiz:

1. Pensiya to'lovlari xarajatlari xodimning xizmat ko'rsatishi sababli buxgalteriya hisobi foydasini aniqlashda chegirib tashlanishi mumkin, lekin korxona pensiya jamg'armasiga badallar kiritganda yoki xodimlarga pensiya to'laganda soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda chegirib tashlanadi. Majburiyatning balans qiymati va uning soliq bazasi o'rtasida vaqtinchalik farq yuzaga keladi. Majburiyatning soliq bazasi odatda nolga teng. Ushbu chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farq kechiktirilgan soliq aktivining paydo bo'lishiga olib keladi, chunki tashkilot badallarni kiritish yoki pensiyalarni to'lashda soliqqa tortiladigan foydadan chegirma shaklida iqtisodiy foyda oladi.

2. Tadqiqot xarajatlari ular paydo bo'lgan davrda buxgalteriya foydasini aniqlashda xarajatlar sifatida tan olinadi, ammo soliqqa tortiladigan foydani (soliq zararini) aniqlashda ularni chegirib tashlashga faqat keyingi davrda yo'l qo'yilishi mumkin.

3. Korxonalarni birlashtirishda sotib olingan va qabul qilingan identifikatsiya qilinadigan aktivlar va majburiyatlar sotib olingan sanadagi adolatli qiymati bo'yicha tan olinadi. Agar qabul qilingan majburiyat sotib olish sanasida tan olinsa, lekin tegishli xarajatlar soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda faqat keyingi davrda chegirib tashlanadigan bo'lsa, chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farq yuzaga keladi, bu esa kechiktirilgan soliq aktiviga olib keladi.

4. Aktivlar bozor qiymati bo'yicha hisobga olinishi yoki soliqqa tortish maqsadlarida qayta baholanishi mumkin. Agar aktivning soliqqa tortilishi uning balans qiymatidan oshsa, chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farq yuzaga keladi.

5. Tovar-moddiy zaxiralarning qiymatida ham nomuvofiqliklar bo'lishi mumkin. Masalan, tovar-moddiy boyliklarning sof sotish qiymati oldingi balans qiymatidan kam bo'ladi. Shu sababli, korxona tovar-moddiy boyliklarning balans qiymatini kamaytiradi, lekin tovar-moddiy boyliklar sotilgunga qadar soliqqa tortish maqsadida kamaytirishni hisobga olmaydi.

Chegirilishi mumkin bo'lgan vaqtinchalik farqlarni bekor qilish kelajakda soliqqa tortiladigan foydani aniqlashda chegirmalarga olib keladi. Shu bilan birga, korxona chegirmalarni qoplash mumkin bo'lgan yetarli miqdorda soliqqa tortiladigan foyda keltirsagina, kamaytirilgan soliq to'lovlari shaklida iqtisodiy foyda oladi. Shunga ko'ra, korxona kechiktirilgan soliq aktivlarini faqat chegirib tashlanadigan vaqtinchalik farqlardan foydalanish mumkin bo'lgan soliqqa tortiladigan foyda olish ehtimoli bo'lgan darajada tan oladi.

12-sonli BHXS tashkilotning hisobotida foyda solig'i bo'yicha hisobot berish uchun javobgarlik usulini belgilaydi, unga ko'ra tashkilotning moliyaviy hisobotlarida nafaqat joriy foyda solig'ini, balki kechiktirilgan foyda solig'i ham aks ettirilishi kerak.

Kelgusidagi soliq oqibatlarining ta'sirini tan olish moliyaviy hisobotda kechiktirilgan soliq majburiyatlari va kechiktirilgan soliq aktivlarini keltirib chiqaradi. Ular aktivlar va passivlarning balans qiymati va ularning soliq solinadigan bazasi o'rtasidagi farq tufayli shakllanadi.

Aktivning soliq solinadigan bazasi - bu aktivning balans qiymatini qoplash jarayonida korxona oladigan har qanday soliqqa tortiladigan iqtisodiy foydadan soliq solish maqsadida chegirib tashlanadigan summa. Agar ushbu iqtisodiy

manfaatlar soliqqa tortilmasa, aktivning soliqqa tortish bazasi uning balans qiymatiga teng bo'ladi.

Masalan, binodan foydalanish natijasida tashkilot soliqqa tortiladigan daromad oladi, bu esa amortizatsiya ajratmalari miqdoriga kamayadi. Aktivning yaroqlilik muddati tugagach, to'plangan amortizatsiya summasi uning tannarxiga teng bo'ladi. Shuning uchun, binoni sotib olish vaqtida vaqtinchalik farq bo'lmaydi, chunki olingan foyda oxir-oqibatda buxgalteriya hisobi va soliq maqsadlarida mulkning butun qiymatiga kamayadi. Lekin u keyinchalik buxgalteriya hisobida va soliqqa tortish maqsadida turli xil amortizatsiya stavkalarini qo'llash natijasida shakllanadi. Bu binoning moliyaviy hisobotining buxgalteriya qiymati va ularning soliq bazasi o'rtasidagi farqqa olib keladi. Bu farq vaqtinchalik farqdir, chunki vaqt o'tishi bilan u yo'qoladi, ya'ni, soliq solinadigan baza va balans qiymati teng bo'ladi, chunki aktivning dastlabki qiymatigacha amortizatsiya qilinadi.

Foyda solig'i hisobi bo'yicha muhim masala bu joriy va kelgusidagi soliq oqibatlarini hisobga olish bo'lib hisoblanadi:

(a) Korxona balansida tan olingan aktiv (majburiyat)larning balans qiymatini kelgusida undirish (qoplash); va

(b) korxonaning moliyaviy hisobotida aks ettiriladigan joriy davr operatsiyalari va boshqa hodisalari.

Yuqorida bayon qilingan standart qoidalari asosida muddati uzaytirilgan soliqlarni hisob-kitob qilishning quyidagi qadamlarini keltirib chiqarish mumkin:

Birinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatini aniqlash;

Ikkinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlarning soliq bazasini hisoblash;

Uchinchi qadam. Aktivlar va majburiyatlar balans qiymati ularning soliq bazalari bilan solishtiriladi va barcha vaqtinchalik farqlar aniqlanadi;

To'rtinchi qadam. 12-son BHMSlari talablariga muvofiq muddati uzaytirilgan soliqlarni yuzaga kelishiga olib kelmaydigan vaqtinchalik farqlarni aniqlash;

Beshinchi qadam. Soliq solishning stavkalarini qo'llash yo'li bilan muddati uzaytirilgan soliq aktivlari va soliq majburiyatlarini (yoki sof muddati uzaytirilgan aktivlar va majburiyatlarini) hisoblash;

Oltinchi qadam. Muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va aktivlari saldosining davr boshiga nisbatan o‘zgarishini aniqlash va ushbu o‘zgarishlarni tan olish:

- Foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda;
- kapitalda;
- yoki gudvilning kamayishi hisobidan (kompaniyalarni birlashtirishda);

Yettinchi qadam. Foyda solig‘i stavkasi o‘zgarishining ta’sirini hisoblash

Misol

Tashkilot uskunani qayta baholadi (16-sonli BHXSga muvofiq, ushbu aktivlar guruhini hisobga olish uchun “Qayta baholangan qiymat bo'yicha” modeli tanlangan) va tegishli buxgalteriya yozuvlarini kiritdi. Qayta baholash summasi 300 000 so’mni tashkil etdi, quyidagi yozuv kiritildi:

Debet	Kredit	Summa
0130 “Masina va uskunalar”	8510 “Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar”	300 000 000

Soliq hisobida ushbu qayta baholash tan olinmaydi va shunga mos ravishda 300 000 000 so’m miqdorida vaqtinchalik farq paydo bo'ladi. Shu sababli, 45 000 000 so’m miqdoridagi kechiktirilgan soliq majburiyati tan olinishi kerak (foyda solig'i stavkasi 15 foiz):

Debet	Kredit	Summa
8510 «Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash bo‘yicha tuzatishlar»	6250 “Vaqtinchalik farqlar bo'yicha kechiktirilgan foyda solig'i majburiyatlari”	45 000 000

Kechiktirilgan soliq aktivlari soliq qonunchiligiga muvofiq kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazani kamaytirish uchun olinadigan o'tgan davrlardagi yo'qotishlar munosabati bilan ham yuzaga kelishi mumkin.

Xulosa va takliflar

So’nggi yillarda mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish bo’yicha qabul qilingan konsepsiya doirasida korxonalar foydasini soliqqa tortish ma’muriyatchiligini takomillashtirish bo’yicha ijobiy islohotlar amalga oshirilgan. Jumladan, korxonalar o’rtasida soliq yukini birxillashtirish maqsadida bir qator tadbirkorlik subyektlari foyda solig’i to’lashga o’tkazilgan, foydadan olinadigan soliq turlari qisqartirilgan va foyda solig’i stavkalari pasaytirilgan. Shu bilan birga, ayrim yuridik shaxslardan undiriladigan qo’shimcha foyda solig’i bekor qilingan. Bu esa foyda solig’i tushumining oshishiga ijobiy ta’sir etgan.

Shuningdek, mamlakatimizda 2023 yil 11 sentyabrda qabul qilingan “O’zbekiston – 2030” strategiyasida soliq tizimining barqarorligini ta’minlash maqsadida biznes uchun foyda soliq stavkalari uch yil davomida oshirilmasligini kafolatlash vazifasi belgilab berildi. Bu esa, mamlakatimizda tadbirkorlarga erkin faoliyat yuritishi uchun eng qulay muhit yaratish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2021. – 41 b.

2. Ашурова Н.Б. Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашда солиққа тортиш механизмини такомиллаштириш:и.ф.д (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2018.

3. Васильева М.В. Оценка зарубежного опыта формирования системы налогообложения прибыли // Экономические и гуманитарные науки. 2012. № 7. с. 99-102.

4. Зарипов Х.Б. Солиққа тортиладиган фойда маъмуриятчилиги механизми: хусусиятлари ва ҳозирги замон муаммолари. Монография Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 3, June 2023. ISSN: 2181-1016.

5. Knoll, M. (2006), Taxes and Competitiveness. Faculty Scholarship. p-30.

6. Исламкулов А.Х. Бюджетлараро мутаносибликни таъминлашда солиқлар тизимини такомиллаштириш: и.ф.д. (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2020)

7. Исаев И.Ф. Солиқ таҳлили методикасини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафадоктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2019.

8. Pinto, O. (2016). Tax Factors affecting International Competitiveness: Canada vs. United States Perspective. International Journal of Business and Social Science. Vol. 7, No. 12; December 2016

9. Тошматов Ш.А. Корхоналар иқтисодий фаоллигини оширишда солиқлар ролини кучайтириш муаммолари:и.ф.д. илмий даражасини олишучун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2008.

10. Урмонов Ж.Ж. Тадбиркорлик субъектлари фаолиятини солиқ механизми воситасида тартибга солишни такомиллаштириш масалалари: и.ф.д (Doctor of Science) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Тошкент, 2018.